

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

F.X.Rahimov, A.Muhammadiyev

Soha komponentlarining samarali integratsiyasi – innovatsion rivojlanish garovi 8

Sh.Nishonova

Investitsiya loyihalarini boshqarish jarayonining bosqichlari va investitsiya jozibadorligini baholash mexanizmlari 16

Z.M.Tojiboyev

Yashil moliya va O'zbekistonda barqaror rivojlanish: rivojlanayotgan bozorlerde ESG va yashil obligatsiyalarning roli..... 21

FALSAFA

Sh.T.Tursunkulova

Estetika tarixida go'zallik tushunchasi 25

S.S.Jabborova

Yangi O'zbekistondagi ma'naviy islohotlar ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida..... 32

M.O'rinov

Yangi O'zbekiston tasviriy san'atida avlodlar almashinuvi fenomeni va madaniy transformatsiyalar dialektikasi 35

D.N.Tag'oyeva

Oila, nikoh masalalarining genezisi va jadidlar ma'naviy merosida mazkur masalalarning aks etishi..... 39

A.A.Mirzayev

Ibn al-Arabiyning komil inson haqidagi qarashlari..... 49

M.R.Tuxtasinov

Demokratik jamiyatda siyosiy tafakkurni rivojlantirish muammolari..... 54

G.M.Ruzmatova

Ibn Sino va Erix Fromm: ijtimoiy faollikka oid falsafiy g'oyalarining qiyosiy-tahlili..... 58

J.B.Anarbayev

Yangi O'zbekiston sharoitida inson manfaatlarini ta'minlashda institutsional hamkorlikning roli..... 62

N.A.Umirzakova

Tibbiy ta'limga bioetikaviy imperativlarni joriy etish - zamonaviy tibbiyotni optimallashtirishning usuli sifatida 66

M.R.Sodiqova

Inson qadrini ta'minlashda demokratik qadriyatlarining o'rni 70

I.T.Boltaboyev

Ijtimoiy adolatning falsafiy talqini: tarixiy va zamonaviy yondashuvlar 74

S.R.Bo'ldiyeva

Buxoro hunarmandlarining e'tiqodi va ularning hayotdagi falsafiy qarashlari 79

M.X.Baratova

Kambag'allik muammosining ijtimoiy-falsafiy talqini va uni o'rganishning metodologik asoslari 84

B.Tadjixodjayev

Davlat boshqaruvida xarizmatik shaxslar faoliyatining sotsiologik tahlili 89

A.B.G'ulomov

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy tamoyillari va strategik asoslari 93

M.R.Sodiqova

Yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar 97

D.V.Vohidova

Xojagon tariqati va ma'rifatli jamiyatning ruhiy-ma'naviy asoslari 101

A.B.G'ulomov

Yangi O'zbekiston va fuqorolik jamiyati qurishda Farg'ona jadidchilik maktab namoyondalari ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ahamiyati 105



UO'K: 316.356.2:94(575.1):316.7

OILA, NIKOH MASALALARINING GENEZISI VA JADIDLAR MA'NAVIY MEROSIDA MAZKUR MASALALARNING AKS ETISHI**ГЕНЕЗИС ПРОБЛЕМ СЕМЬИ И БРАКА И ОТРАЖЕНИЕ ЭТИХ ПРОБЛЕМ В ДУХОВНОМ НАСЛЕДИИ ДЖАДИДОВ****THE GENESIS OF FAMILY AND MARRIAGE ISSUES AND THE REFLECTION OF THESE ISSUES IN THE SPIRITUAL HERITAGE OF THE JADIDS****Tag'oyeva Dilnavoz Narziqulovna** 

Buxoro davlat pedagogika instituti, "Ijtimoiy fanlar" kafedrası falsafa fanlari doktori (PhD).

Annotatsiya*Mazkur maqolada oila va nikoh munosabatlarning vujudga kelishi, jadidlar qarashlarida oila masalasi falsafiy tahlil etilgan.***Аннотация***В статье дается философский анализ возникновения семейно-брачных отношений, а также проблема семьи во взглядах джадидов.***Abstract***This article provides a philosophical analysis of the emergence of family and marriage relationships, and the issue of family in the views of Jadids.***Kalit so'zlar:** Oila, nikoh, jadid, Abdurauf Fitrat, Maxmudxo'ja Behbudiy, Avesto, Oila kodeksi, oila funksiyalari, Pol Demar.**Ключевые слова:** Семья, брак, Джадид, Абдурауф Фитрат, Махмудходж Бехбуди, Авеста, Семейный кодекс, семейные функции, Поль Демар.**Key words:** Family, marriage, Jadid, Abdurauf Fitrat, Mahmudkhoj Behbudi, Avesta, Family Code, family functions, Paul Demar.**KIRISH**

Bugungi globallashuv sharoitida oila va oilaviy munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish, uni saqlash va munosabatlarni tartibga solish har doimgidan birmuncha murakkab va uzoq davom etadigan jarayondir. Garchi bugungi zamon rivojlangan, hayot suratlari ancha yuksalgan, yosh oilalarga ko'plab imkoniyatlar yaratilgan bo'lsada, ammo, oilaviy munosabatlarni tartibga solish va nikohning mustahkamligini ta'minlash masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Bu borada bugungi kunga qadar ko'plab tadqiqotlar va izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa jadid ma'rifatparvarlari Oila va Nikoh masalasiga alohida e'tibor qaratgan.

Mamlakatimizda ma'rifatparvarlarning ilmiy, ma'naviy merosida ilgari surilgan vatanparvarlik, sobitqadamlik, bag'rikenglik, ma'naviy ogohlik, gumanizm, shaxs kamoloti borasidagi qarashlarini o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jadid ma'rifatparvarlarining oila mazusidagi ayni murojaat qilingan badiiy va ilmiy-ommabop asarlari, ilmiy maqolalari mavjudligini inobatga olsak mazkur ilmiy materiallarni falsafiy tahlil qilishni bugungi kun o'zi taqozo qilmoqda.

Oila ijtimoiy intitut sifatida kecha vujudga kelgan emas. Oilaning bugunga qadar transformatsiyalashuvi undagi o'zgarishlarni o'rganishni taqozo qiladi. Oilaga diniy va ilmiy manbalarda turlicha ta'riflar berilgan:

Oila – ikki insonni bir maqsad yo'lida sabr-toqat, matonat, muhabbat-bag'rikenglik, to'qlik va yo'qlikda, chidam-bardoshlilik, shukronalik ruhida birlashtirgan, yaratgan amriyu ikki qalb roziligi bilan quriladigan muqaddas qo'rg'ondir. Oila tushuncha sifatida dunyoviy manbalarda ancha keyin vujudga kelgan bo'lsada, ammo kichik ijtimoiy guruh sifatida insoniyatning vujudga kelishi bilan taqqoslanadi.

Diniy manbalarda oila ilk inson vakili Odam ato va Momo Havo o'rtasidagi nikohdan boshlanib, toki bugunga qadar vujudga kelayotgan oilalarning muqaddasligi bilan izohlanadi. Barcha mavjudotlar o'z jufti bilan yaratilgan bo'lib, inson bolasiga ham juft bo'lib yashash xosligi diniy qarashlar asosini tashkil qiladi. Yaratgan Haqning yagonaligi ta'kidlangan diniy manbalarda, nikohga, oila qurishga da'vat etiladi. Bu manbalar orasida O'rta Osiyo mamlakatlarining eng qadimgi tarixi, turmush tarzi haqida ma'lumot beruvchi eng qadimiy manbalaridan biri, zardushtiylik dinining muqaddas kitobi Avestodir. Mazkur kitobda insonning kamoloti, o'zlikni anglash, dunyoning falsafiy manzarasini idrok etish, ma'naviy, ruhiy poklanish, ezgulikni anglash, yovuzlikdan saqlanish, axloqiy barkamollikni shakllantirish, insonning burchi, niyatning sofligi, amallarning subutligi, fikrning yovuzliklardan xoliligi, amallarning ezguligiga alohida e'tibor qaratiladi. "Kim oyning ham chiqib, ham so'nishini yaratgan? Kimyerni va tushib ketmasin deb bulutlarni ushlab turadi? Kim suv va daraxtlarni yaratgan? Kim otaning yuragiga o'g'il ko'rish orzusini solgan? Buning hammasini Axura Mazda bunyod etgan. Uni o'z ruhidan, odamni jonli, ongli, o'zini o'zi anglatuvchi qilib yaratgan" [1]Yuqoridagi jumlar ota - bobolarimiz, tabiat va inson omilini uyg'un holatda, tabiat narsa va hodisalar insonsiz, inson esa tabiat borlig'isiz mavjud bo'la olmasgiga, o'z navbatida tabiatni insonga va insonni tabiatga bo'lgan etiyohlari zaruriyat, oila tabiat qonuniyati asosida rivojlanib borishi, Avestoning naturfalsafasini ifodalaydi.

Avestoda oila qurish tabiat qonuni hisoblanib, oila qurish imkoniyatiga ega o'g'il qiz albatta uylanishi shart. Zardushtiylikda uylanish imkoniyatiga ega, nikoh yoshiga etgan yigit uylanmasa qiz turmushga chiqmasa, qattiq jazolangan. Uylanish imkoniyati bo'la turib, nasl qoldirish qobiliyatiga ega yigit oila ma'suliyatini bo'yniga olishni istamasa, jamoa tartibini keyingi avlodlar unga o'xshab buzmasligi uchun, unga tamg'a bosilgan, beliga og'ir zanjirlar bog'lab yurishga majbur qilingan. Bu kabi jazolar o'smir yigit-qizlarni yoshligidan oila ma'suliyatini shakllantirga xizmat qilgan. Bu kabi qarashlar jadid namoyondasi Abdurauf Fitrat ma'naviy merosida ham uchraydi. U o'z asarida oila bu- "Odamlarning madaniy toifa ekanliklari, ya'ni tabiat hukmi ila bir qabila yoki bir qavm suvratida jam bo'lib bir-birlariga yordam berib yashashlari. Kimki ana shu tabiat qonunining doirasidan chiqsa, ya'ni jamiyatdan chetlashsa, shubhasiz, mavh va nobud bo'lg'ay"[2]. Abdurauf Fitrat jamiyatdagi taraqqiyot, insonlar dunyoqarashidagi o'zgarishlarni diniy va ilmiy va fan nuqtai nazaridan asoslab bergan. Insonning oila qurishi uning biologik ehtiyoji va bu ehtiyoj sabab millat yuksalishini ko'ra olgan olim yoshlarni oila qurishga da'vat etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda yigit qizlar orasida yoshi katta bo'lishiga qaramay, oila ma'suliyatini bo'yniga olishni istamayotgan yoshlarni ko'plab uchratish mumkin. Vaholangki, Avestoda nikoh yoshi o'g'il bolalar uchun 17 yosh qilib belgilangan. Bu masalada jadid namoyondalari diniy va dunyoviy ilmni uyg'unlashtirib, insondagi antropologik o'zgarishlar, tabiat, iqlimdagi inqirozlar, tibbiyot nuqtayi nazaridan inson organizmi va qonun nuqtayi nazaridan kelib chiqib fikr yuritganlar. Abdurauf Fitrat asarning "Visol" qismida nikoh yoshi borasida "erkaklarga 23 va qizlarga 18 yoshdan oldin uylanmaslikni"[3] maslahat beradi. Bu yoshdan oldin uylanishning zararlari va oqibatlari haqida to'xtalib o'tar ekan, erkak kishining aqlu zakovati, kamolot darajasiga etmagan bo'lsa, uylanish, oila va oila ma'suliyatini ado etishida ojizlik qilishiga sabab bo'lishi mumkin. Oqibatda oila ma'suliyatini bajara olmay, uylanish, erkakka zarar etkazishi mumkinligi haqidagi qarashlarini bayon etadi.

Oil ma'suliyati uni ta'minlash erkak kishining bo'yniga yuklatilgan ushbu asarda, oila qurish uchun erkak o'z vaqtida to'yib ovqatlanib, sog'lom va baquvvat bo'lishi, oilaning moddiy hamda ma'naviy ehtiyojlarini ta'minlay oladigan bo'lishi kerakligi ta'kidlab o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi "Oila kodeksi"ning 15-moddasida "Nikoh yoshi erkak va ayollar uchun o'n sakiz yosh etib belgilanadi"[4].

"Avesto"da zardushtiylikning oltin qoidalaridan yana biri - oila muqaddas sanalganligi bois, boshqa sabablarga ko'ra, masalan, ig'vo, tuhmat, er-xotinning o'zaro kelishmovchiligi, ota-ona bilan muros madora qila olmaslik kabi bahonalar bilan nikohning bekor qilinishiga yo'l qo'yilmagan[5].

Oil mustahkamligiga ota-ona, bobo-buvi, qo'ni-qo'shni yoshi ulug' insonlar birdek ma'sulligi, oila qurgan er-xotin keksalarning maslahati bilan uy ro'zg'or tutishlari kerakligi to'g'risidagi mulohazalar ham Abdurauf Fitrat asarida keltirib o'tilgan. U qarindoshlar o'rtasidagi nikoh qat'iyan man etilganligini ta'kidlaydi. Bu o'z navbatida qon qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarga putur etkazmaslik, millat qonining sofligini saqlashga xizmat qilishini ta'kidlaydi. Ajdodlarimiz ko'p farzandli, betob, bemor yoki nuroniylari bor oilalarga g'amxo'rlik qilishgan. Bundan ko'rinadiki, oila va nikoh

FALSAFA

masalasi faqat ikki shaxs munosabati bo'libgina qolmay, balki barcha jamiyat a'zolari bir oilaning shakllanib farovon yashashiga ma'suldir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Oila va nikoh munosabatlari davom etar ekan, ushbu masalada qadimiy bitiklar, xalq og'zaki ijodi namunalari ham bu boradagi ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. "Alpomish", "Qirg'iz", "Go'ro'g'li", "Kuntug'mish", "Layli va Majnun", "Yusuf va Zulayxo", kabi dostonlarda yoki lapar, kuy va qo'shiqlarda, sof insoniy tuyg'ular bilan birgalikda ijtimoiy hayotda uchraydigan muammolar, yorga vafo, oilaga sadoqat mavzulari yoritilgan.

Oila-nikoh munosabatlari insoniyat urug' jamoa bo'lib yashagan davrda ham, katta patriarxal oila vujudga kelgan davrda ham mavjud bo'lib, nikoh munosabati tartibga solinmagan edi. Oila kishilik jamiyatining dastlabki asosi sifatida mavjud bo'lishi uzoq davrni o'z ichiga oldi. Oila tushunchasi nikoh tushunchasi bilan vujudga keladigan muqaddas qo'rg'on ekanligi Yagona maqsad yo'lida birlashib, ilohiy tuyg'u muhabbat rishtasi bilan bog'lanib, yaratgan amri bilan, yaqinlar guvohligida nikohning, oilaning tuzilishi jamiki mavjudot va jonzotlar ichida faqat insoniyatga xosdir.

Oila inson umrining boshlanish maskani. Shuning uchun ham jamiyat taraqqiyoti oila ijtimoiy muhiti bilan birgalikda kechadigan jarayondir. Bunday oilalar birlashib jamiyatlarni, jamiyatlar esa davlatlarni tashkil qiladi. Oila ma'lum axloqiy va siyosiy qonun va meyorlar asosida tuziladigan jamiyatning eng kichik yacheykasidir. Har bir oilaning o'z tartib-intizomi bo'lganidek, bu oilalardagi tartib va intizomni to'g'ri nazorat qilib turadigan davlatning qonunlari, huquqiy meyorlari mavjud. Oila instituti o'z-o'zicha mavjud bo'la olmaydi. Bunda u asriy an'analar, urf-odatlar, axloqiy me'yorlarga tayanib, jamiyat qonunlariga itoat qilib yashamog'i lozim. Aks holda jamiyatdan uzilgan, o'zgacha fikrlovchi oilalar guruhi shakllanishiga sababchi bo'lish mumkin. Shuning uchun ham har bir davlat oila va undagi fuqarolarning huquq va erkinliklarini o'z himoyasiga oladi. Inson huquqlari Umumjahon Deklarasiyasining 1948-yilda qabul qilingan, 3-qismi 16-moddasida "Oila jamiyatning tabiiy va asosiy hujayrasidir va u jamiyat, davlat tomonidan muhofaza etilish huquqiga egadir"[6] - deb belgilab qo'yilgan.

Turli davrlarda, turli mamlakatlarda inson va oila ijtimoiy guruhlari turlicha taraqqiyot bosqichlarini bosib o'tganlar. Ijtimoiy institut sifatida turli hududlarda turlicha mazmun kasb etgan institutlar o'z faoliyatini olib borgan holda taraqqiy qilgan.

Ijtimoiy institutlar har bir mamlakatda o'z tartibiga asosan tuziladi va faoliyat olib boradi. O'zbekiston Respublikasida quyidagi ijtimoiy institutlar faoliyat olib bormoqda:

1. Oila va nikoh instituti
2. Iqtisodiy institutlar (ish, mehnat)
3. Siyosiy institutlar (qonunlar, farmon, farmoyishlar va davlat ramzlari)
4. Diniy institutlar (e'tiqod, diniy maskanlar, muqaddas kitoblar)
5. Ijtimoiy-ma'naviy institutlar (fan, ta'lim, madaniyat)

Ijtimoiy institutlar orqali jamiyat hayoti va fuqarolar o'rtasidagi munosabatlar tartibga solinadi va nazorat qilinadi. Bu institutlar orasida eng kichik bo'lishiga qaramay eng katta ma'suliyatli, kechiktirib bo'lmaydigan vazifani o'z zimmasiga olgan oila instituti hisoblanadi.

Oila-er-xotinlik ittifoqiga, qarindosh aloqalariga, umumiy xo'jalik yuritadigan er va xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka va opa-singillar va boshqa qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarga asoslanadigan kichik ijtimoiy guruh; jamiyatning asosi, davlat qudratining manbai.[7] Kishilik jamiyati tabiiy, biologik, genetik, fiziologik, huquqiy, ma'naviy, madaniy, iqtisodiy munosabatlarni shakllantiruvchi oilada birlashib, shu va boshqa munosabatlarni rivojlantiradi. Inson tabiiy biologik aloqada nasl qoldirishi orqali, oilani vujudga keltira boshlaydi. Iqtisodiy munosabatlar ham tabiiy biologik jarayonlarda vujudga kela boshlaydi, moddiy-ma'naviy, huquqiy munosabatlar tarbiyalanadi va shakllanib boradi. Har qanday davlat, jamiyat oilalardan tashkil topgan ekan, uning to'g'ri shakllanishi, farovon yashashi, munosib zurriyot qoldirishi uchun mamlakat tinch-totuv, hukumat esa oila institutiga g'amxo'r bo'lmog'i lozim.

1. **Oila**-nikoh jumlasiga nisbatan ko'p ma'no aks etadigan, murakkab ijtimoiy munosabatlar yig'indisi hisoblanib, u er-xotin, yaqin va uzoq qarindoshlari va ularning farzandlari bilan bo'lgan munosabatlarni ham tashkil qiladi.

2. **Nikoh**-bu ikki tomon er va xotinning munosabatini emas balki ular munosabatlarning shaklidir.

Oila bo'lib shakllangan kichik jamiyatning tarkibi, tuzilishi, boshqarilishi, ijtimoiy kelib chiqishi va boshqa shartlarga ko'ra turlarga ajratiladi.

Oila tarkibiga ko'ra turlari:

1. To'liqligiga ko'ra: to'liq, noto'liq, qayta tuzilgan oilalar;
2. Bo'g'inlar soniga ko'ra: patriarxal, nuklear (ota-ona va bolalar), mezalyans;
3. Bolalar soniga ko'ra: farzandsiz, bir bolali, kam bolali, 3-5 bolali, serfarzand oila;
4. Oilaning yoshiga ko'ra: 1-10 yillik yosh oila, o'rta yoshdagi oila, etuk yoshdagi oila;
5. Ijtimoiy kelib chiqishiga ko'ra: ishchilar, dehqonlar, xizmatlarchilar, ziyolilar, tadbirkorlar, aralash turdagi oilalar;
6. Saviyasiga ko'ra: oliy, o'rta, o'rta maxsus va boshqalar;
7. Millatiga ko'ra: bir millatli va baynalminal;
8. Oilada er yoki xotin etakchiligiga ko'ra: er etakchi bo'lgan oila, xotin etakchi bo'lgan oila, er-xotin etakchi bo'lgan oila;
9. Oiladagi er-xotin o'rtasidagi munosabatlariga ko'ra: avtoritar, demokratik, liberal, aralashtipdagi oilalar;
10. Yuridik rasmlashtirganiga ko'ra: sinovdagi oila, rasmiylashtirish arafasidagi oila, nikohdagi oila va nikohdan tashqaridagi oilalar;

Abdurauf Fitrat o'zining "Oila yoki oila boshqarish tartiblari" asarida oila turlarini uning tarkibiga ko'ra shakllantirgan. Turli millatlarda oila tarkibi uning a'zolari soniga qarab, millatning ulug'vor bo'lishini Pol demar misolida ko'rsatib o'tgan. "Pol Demar yozadiki, XIX asrning boshlarida, ya'ni 1810 yili Fransiya aholisi 28 mln., Angliya aholisi 10 mln., Olmon aholisining soni 18 mln edi. ...Pol Demar bu hisobni ko'rib: "Agar ahvol shunday davom etaversa, nafaqat biz vatan muhofazasidan, balki hayot orzusidan ham mahrum bo'lamiz, [8]"-deya qayg'uradi. Mazkur masalada Yevropa mamlakatlari Osiyo mamlakatlarini ortda qoldirayotganligini ta'kidlab, yoshlarni oila qurishga va shu orqali o'zbek millati vakillarini ko'payishiga da'vat etadi.

Oila-nikoh munosabatlarining asosiy tushunchalariga quyidagilar kiradi: oilaviy hayot sharoiti, oilaviy tajriba, oila funksiyasi, oila turmush tarzi, oilaviy fikr va boshqalar. Bu kabi tushunchalar oilada er-xotin munosabatlarining asosiy jihatlarini o'z ichiga oladi. Nikoh-oilaning asosiy sharti. Nikoh-erkak va ayol o'rtasidagi munosabatining huquqiy asosidir. Nikohlanuvchilar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, huquqiy muomolasini tarixan shakllangan, kishilik jamiyati tomonidan maqullangan axloqiy me'yorlar orqali, ularning oila azolari va qarindoshlariga nisbatan munosabatlarini belgilab beruvchi, tartibga keltiruvchi belgidir.

Nikoh shakliga qarab oila monogam va poligam oilaga bo'linadi. Monogam oila- nikoh juftining mavjudligi. Poligam oila-bu erkak kishi bir nechta ayolga ega bo'lishi mumkin.

Oilaning maqsadi- bo'lajak er va xotinning o'zaro ishonch, kelishuv asosida munosib nasl qoldirish, jamiya va tabiat qonunlari davomiyligini ta'minlash. Nikohning sharti-farzand, nasl qoldirish. Oila ijtimoiy, iqtisodiy, axloqiy, huquqiy vazifalarni yagona maqsad ostida birlashtira olsagina barqaror oilaga aylanadi.

Oilaning vazifalari:

Oilaning ijtimoiy vazifasi, jamiyatda o'z o'rnini va sha'niga ega bo'lish, kundalik yumushlari hamda farzand tarbiyasidagi ma'suliyatni er-xotinning birgalikdagi ma'suliyati, oila a'zolarini qo'llab quvvatlash, salomatligiga g'amxo'rlik qilish..

Oilaning huquqiy vazifasi, er-xotin, oila a'zolarining teng huquqliligi, mulkiy va shaxsiy munosabatlarning mavjudligi bilan xarakterlanadi.

Oilaning iqtisodiy vazifasi, oiladagi iqtisodiy sarf xarajatlar tengligi, moddiy boyliklarni taqsimlash, sovg'a, in'omlarni berish va qabul qilishda tenglikning mavjud bo'lishi. Oila a'zolarining yashashi uchun zarur anjom, texnika, kiyim - kechak, oziq-ovqat va bilim olishi, o'z iste'dodini ro'yobga chiqarishi uchun iqtisodiy shart sharoitlarni yaratishni o'z ichiga oladi. Unga mehnatga yaroqsiz oila a'zolarini (voyaga etmagan bolalar, qariyalar) moddiy jihatdan ta'minlash ham kiradi.

Mazkur masalada Abduraf Fitrat "Oilaning maishati va idorasi" sarlavhasi ostida, oilaning iqtisodiy, moliyaviy masalalari haqida to'xtalar ekan "Madomiki er-xotin bir-birlariga hayot sheriklari va yo'ldoshi ekanlar bas, ular tirikchilikning ba'zi ishlari va ma'suliyatini o'z zimmlariga olib, shularni bajarishlari lozim. Ma'lumki, yashash uchun pul va pul topish uchun sa'y va amal lozim [9]" -deb, ta'kidlaydi.

Oilaning axloqiy vazifasi, eng birlamchi va kechiktirib bo'lmaydigan hamma oila a'zolari birdek ma'sul bo'lishi talab qilinadigan asosiy vazifa bo'lib, oila va a'zolarining ma'naviy qiyofasining

FALSAFA

to'g'ri shakllanishi, milliy urf-odatlar a'analarga sodiqlik, vatanga sadoqat, ajdodlarga hurmat, ruhida tarbiyalash.

Zamonaviy oilaning ijtimoiy funksiyalarini tahlil qilgan N.Z.Saydalieva quyidagi oila funksiyalarini keltirib o'tadi:

Oilaning reproduktiv funksiyasi. Oilada farzandlar tug'ilishi va jamiyatda aholining yangilanib turilishini o'z ichiga oladi.

Oilaning ijtimoiy-tarbiyaviy funksiyasi. Yosh avlodni jismoniy sog'lom, ma'naviy barkamol, axloqiy pok etib tarbiyalash, uning ijtimoiylashuvini ta'minlash kiradi.

Oilaning xo'jalik yuritish funksiyasi. U oila a'zolarining to'laqonli yashashi uchun zarur sharoitlar yaratib berish, xo'jalik ishlarini tashkil etish kabilardan iboratdir.

Unga oila a'zolarining xulq-atvorini, axloqini nazorat qilish, er-xotinning oila va jamiyat, farzandlarning ota-onalar va ota-onalarning farzandlar oldidagi mas'uliyatini shakllantirish va uning normalariga rioya qilish kiradi.[10]

Yuqoridagi funksiyalar to'laqonli aks etadigan oilalarning ko'payishi mamlakat barqarorligi, yurt tinchligi va farovon hayotni ta'minlaydi.

Mulkiy munosabatlarning vujudga kelishi bilan huquqiy, diniy, madaniy sohalarida ham o'zgarishlar yuzaga kela boshladi. Insoniyatning madaniylashuvi, yangilikni inkor qilib o'rniga yanada yangisini joriy qilishi orqali, kundalik munosabatlar osonlashdi, nikoh munosabatlari tartibga solindi. Bu esa kundalik hayotda yakka tartibdagi oilalarning er va xotin o'rtasida shakllanadigan nikohning vujudga kelishiga zamin yaratdi.

Yakka oilalarning vujudga kelishi hali er va xotin munosabatlari o'rtasidagi muammoni to'liq hal qila olmagan. Quldorlik tuzumi ilk sinfiy jamiyat shakllangan davrda oilalar yakka nikoh tarzida yuzaga kelgan bo'lsada, ayrim kamchiliklar hali ham mavjud edi. Oila rahbari hisoblangan mulkdor hali ham mulkiy munosabatlarni yakka o'zi ayolisiz hal qilardi. Nikoh mavjud bo'lsada, oilada yashovchi ayol va farzandlarning amalda mulkiy munosabatlarda hech qanday huquqi yo'q edi. Mulkdor er, o'z ayoli bilan istagan paytda ajralishi va boshqa ayolni o'z nikohiga olishi mumkin edi. Ammo, ayollarda bunday huquq bo'lmagan. Bu esa jamiyatda tengsizlikni keltirib chiqargan. Ilk o'rta asrlagacha saqlanib qolgan bu hayot tarzi farzandlar tarbiyasiga ham ta'sir qilmay qolmagan.

O'rta asrlar davriga kelib ham bu kabi munosabatlar, ayollarni mensimaslik, xo'rlash, mulkiy munosabatlarda ularning haqlarini ajratmaslik, ayollar huquqining oila erkagi tomonidan poymol qilinishi oddiy hol bo'lgan. Oila qurishdan oldin nikohlanuvchilar o'rtasidagi sevgi muhabbatning bor yo'qligi deyarli muhim masala sanalmagan, borlari ham ba'zan inobatga olinmagan.

Mulkiy munosabatlar shakllangan jamiyatga kelib oila ikki tipga bo'lindi: kapitalistik va demokratik oilalar[11].

Mulkdorlarning aksariyati yakka nikoh tarafdori bo'lsada, lekin hali ham ko'p xotinlik munosabatlari saqlanib qoldi. Ba'zi toifadagi mulkdorlar moddiy manfaatdorlik uchun ba'zilar esa o'z nafslarining quli bo'lganligi uchun yolg'iz, yetim, go'zal ayollarning huquqini poymol qilganlar. Bu kabi tengsizliklardan ayniqsa O'rta Osiyo xonliklari davrida sharq ayollari aziyat chekkanlar.

NATIJALAR

O'rta asrlarda Sharq va G'arbda mavjud bo'lgan oila va nikoh munosabatlari bir-biridan farqli kechdi. Bu farq diniy va dunyoviy davlatlarning mavjudligi bilan xarakterlanadi. Islom dinining O'rta Osiyoga kirib kelishi bu erda mavjud bo'lgan nikoh munosabatlariga ham ta'sir o'tkazdi. Islom dini oila-nikoh munosabatlarini Qur'oni Karim, shariat va odat qoidalari bilan tartibga sola boshladi. Islom dinida er-xotin, farzandlar, bobo-buvilardan tashkil topgan oila va ularning munosabati xususida ko'plab hadis hamda suralar keltiriladi. Qur'onning "Baqara", "Niso" suralarida oila va nikoh masalalari yoritilgan. Har bir musulmon yoki muslima etti pushtini bilishi shart qilib qo'yilgan. Demak, islom dinida kuyov va kelinning etti pushtini so'rab, surishtirib keyin quda- anda tutilgan. Islom dinida nikoh munosabatiga alohida e'tibor berib, ayol mavqeini bir muncha ko'tardi.

Bu haqda Qur'oni Karimda alohida oyati karimalar nozil bo'lgan. Jumladan: "Sizlar eslatma olishlaringiz uchun Biz har bir narsani juft-juft qilib yaratdik." (Zoriyat surasi 49-oyat) Qur'oni Karimning "Nur" surasi 32-oyatida: "Agar ular (nikohlanuvchilar) kambag'al bo'lsalar, Alloh ularni O'z fazlu karami bilan boy-behojat qilur", deb ishora beradi.

Nikoh borasidagi hadislar jadidlar ma'naviy merosida ham uylanishga dalil sifatida keltirilgan. Jumladan, Abu Hurayra (r.a) dedilar: "Sizlarning eng yomonlaringiz xotin olmagan kishidir"[12].

Jumladan Abdulloh ibn Mas'ud rozillohu anhu shunday degan ekanlar: "Agar o'n kun umrim

qolib, uning oxirida vafot etishimni aniq bilsam va menda uylanish imkoniyati bo'lsa, shu o'n kun ichida ham fitnadan ehtiyot uchun uylanib olgan bo'lar edim ". Demak, nikoh, oila qurmoq shariatimizda o'ziga xos bir ibodat ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: "To'rt xislat payg'ambarlarning sunnatlaridandir: hayo, atir sepish, misvak ishlatish, nikoh ." (Termiziy rivoyat qilgan)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: "Oilalar quringlar chunki men sizlarning ko'pligingiz bilan ummatlarga maqtanaman". (Bayhaqiy rivoyat qilgan.)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: "Agar banda oila qursa bas dinining yarmini to'ldiribdi. Qolgan yarmini to'ldirish uchun Allohga taqvo qilsin" (Bayhaqiy rivoyat qiladilar.)

Rasululloh sollallohu alayhi va sallam aytdilar: "Oilalar quringlar taloq qilmanglar. Chunki taloq tufayli Arsh larzaga keladi. "

Islom dinida oila va nikoh munosabatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Islom dinining dalili va isboti deb ulug'langan, qomusiy olim, Burxoniddin Marg'inoniy "Hidoya" asarida "Nikoh" va "Taloq" kitobida barcha oilaviy masalalar yoritib o'tilgan. Asarda nikohdan o'tishda quyidagi qoidalarga amal qilishni uqtiradi:

1. Nikohdan o'tuvchilarning o'zaro roziligi;
2. Nikoh yoshiga to'lishi;
3. Nikohning guvohlar ishtirokida tuzilishi;
4. Kelin uchun qalin va mahr to'lashning lozimligi.
5. Nikohlanuvchilar yaqin qarindosh bo'lmasligi;
6. Ularning tabaqaviy tengligi;
7. Ruhiy jihatdan sog'lom bo'lishi[13]

Yuqoridagi tartibda tuzilgan nikoh qonun doirasida tuzilgan deb topilib, har ikki tomonga teng ma'suliyat yuklatilgan. Islom dinida nikoh tomonlarning roziligi va muhabbat bilan tuzilmog'i, ayolning qadri bir pag'onaga ko'tarilganligi va tomonlarning teng huquqlar hamda majburiyatlar bilan ta'minlanganligini ko'rsatadi. Bu talablar o'z davrida to'la qondirilmagan bo'lsada, islom dini oilaviy munosabatlarni tartibga keltiruvchi chaqiriq bo'lib kirib keldi. Burxoniddin Marg'inoniy "Hidoya" asarida qiz chiqarish va kelin tushurish talablari "kafolat" tushunchasida ifodalanadi. "Kafolat" er va xotin o'rtasidagi tenglikni bildiradi.[14]

MUHOKAMA

Abdurauf Fitrat "Oilalar yoki oilani boshqarish tartiblari " asarida "Uylanishni orzu qilganlar er va xotin o'zaro ahvollarini tekshirgandan so'ng, nasab va boyliliklari muvofiq kelganda, ichki va tashqi jamollarini yoqtirib, uylanishga rozi bo'lgandan keyin ularni nikoh qilish kerak. Ulardan biri rozi bo'lmasa, nikohdan voz kechish lozim, chunki rizosiz nikoh yaxshilikka olib kelmaydi[15] ". Asarda er va xotin moddiy va ma'naviy jihatdan teng bo'lishi lozimligi ta'kidlanib, tenglik tamoyilining saqlanishi oilada er va xotinning nufuzining saqlanishiga xizmat qilishi aytib o'tilgan. Ammo, aksincha noteng oilalar quda tutinib, yoshlar oila qurishsa, har ikki tomon birdek ijtimoiy munosabatlarda qiynalib, urning kambag'alligi, ayolning boyligi, urning oiladagi nufuziga putur etkazishi mumkin.

Demak, islomiy tartiblar, nikoh va oila munosabatlarini tartibga soldi, sog'lom oila muhitini shakllanishiga zamin yaratdi. Islom dini vujudga kelgan johiliya davrida mavjud bo'lgan illatlar bir muncha kamaydi. To'g'ri to'liq ko'pxotinlik, yosh va etim qizlarni mahri uchun sotib yuborish, boy yoshi katta oilasi bor bo'lgan erkaklar tomonidan majburan nikohga olish kabi illatlar oz bo'lsada saqlanib qolganligini inkor qilib bo'lmaydi.

Aynan shu davrda ajdodlarimiz tomonidan yozib qoldirilgan, ma'naviy meroslarimizda o'ta-onaga, ajdodlar ruhiga hurmat, ota-bobalarimizning ibratli nasihatlar, boy mazmun kasb etgan o'g'itlari bugungi kunda ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Ota-onani hurmat qilish, oilaviy munosabatlar, yigit bilan qiz tarbiyasi, inson qadrini ulug'lash, vatanparvarlik, insonparvarlik, mehmondo'stlik, bag'rikenglik kabi ezgu fazilatlar singdirilgan.

Davrlar o'tishi bilan insoniyat turmush darajasi ham o'zgarib, yangicha qarash, yangicha yondashuvlar paydo bo'ldi. Shu jumladan nikoh va oiladagi tartib, urf-odatlarida o'zgarishlar, jamiyatda insonlarning oila borasidagi qarashlarida transformatsiyalashuvning shiddat bilan kechishi bu boradagi qarashlarning turli tumanligi, bugungi kunda oila masalasi o'rganish lozim ekanligini ko'rsatmoqda.

Ilk renesans davrida O'rta Osiyoda yasha ijod qilgan qomusiy olim Abu Nasr Farobiy o'zining "Baxt saodatga erishuv haqida" va "Fozil odamlar shahri" asarlarida inson baxti, yosh avlod

FALSAFA

kamoloti, ta'lim va tarbiya, kishilarning din va ma'rifatga munosabatlari haqida to'xtalib o'tgan. Oilaviy munosabatlarga to'xtalib o'tar ekan Farobiy oila misli davlat kabitir. Oila atalmish davlatning rahbarlari er va xotin oilada mavjud bo'lgan keraksiz urf-odatlarini tark etish lozimligi haqida to'xtalib, «Rahbarlar (er yoki xotin) «yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmog'i kerak. Aks holda o'tmish talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday engillik, o'zgarish va o'sish ham bo'lmaydi». Shuningdek, «Baxt saodatga erishuv yo'lida nimaiki (bilim, odob-axloq, kasb-hunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustahkamlamoq, nimaiki zararli bo'lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur»ligini ta'kidlaydi[16].

Yana bir Sharq mutafakkiri qomusiy olim Abu Rayhon Beruniyning oilaviy munosabatlar haqidagi qarashlari ham alohida e'tiborga loyiqdir. Beruniy o'z qarashlarida, ayniqsa, xotin-qizlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratadi. U o'zining «Minerologiya» asarida oila qurayotgan qizlarga ota-onaning nasihatlarini keltirib, oiladagi tinchlik totuvlik, baxtiyorlik ko'proq ayollar zimmasiga tushishini ta'kidlaydi va shunday yozadi[17]: «Ey qizim! Sen o'rgangan uyingdan ketib, notanish xonadonga tushmoqdasan. Sen bo'lajak kuyovingning hamma xislatlarini bilmaysan. Sen er bo'l, u esa osmon bo'ladi. Demak, sen u bilan shunday yo'l tutki, uning oldida er kabi kamtar bo'lsang, u osmon kabi oliyjanob bo'ladi. Osmon shifobaxsh yomg'iri bilan erni ko'kartirgani kabi u ham o'z mehru shafqati bilan seni xushnud etadi. Yana sen unga kanizak bo'lsang, u senga xizmatchi bo'ladi. Ering sendan faqat yumshoq va shirin so'zlarga eshitsin, yaramaydigan yoki eski libosda yoki yuzlaringga oro berilmagan va sochlaring tartibga solinmagan holda uning oldida o'tirma. Abdulloh ibn Jafar ismli ota o'z qizini turmushga chiqarayotib shunday deydi: – Sen rashk qilishdan saqlangin, chunki bu ajralib ketishning kalitidir. Eringga hadeb gina qilaversang nafratni uyg'otadi. Yaxshisi, sen ering bilan xushmuomala bo'lgin, bu har qanday seyr-jodudan yaxshidir va suvdan foydalangin, bu xushbo'y narsalarning ichida eng birinchisidir»[18]. Beruniy o'z qarashlarida oila tinchi bevosita aqlli, farosatli, tarbiyali ayollar qo'lida ekanligiga alohida urg'u bergan. Oilaviy munosabatlar masalalariga oid o'zining diqqatga sazovor qarashlari bilan ajralib turuvchi mutafakkirlardan biri – Abu Ali ibn Sinodir. Allomaning, ayniqsa, ayollar hayotda qanday bo'lishlari kerakligi haqidagi qimmatli fikrlari hech qachon o'z ahamiyatini yo'qotmaydi. Uning «Tadbiri manzil» asaridagi «Afsofiy behtar zinxo» bo'limida ayollarning yaxshi xulqli bo'lishi haqida so'z boradi va mazkur asarda ayollar quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishlari lozimligi ta'kidlanadi:

1. Bilimli bo'lsin.
2. U dinga ishonishi kerak.
3. Uyatchan, sharm-hayoli bo'lsin.
4. Tabiatan jasur bo'lsin.
5. O'z erini qattiq sevsin.
6. Tug'ish va bola tarbiyasi haqida o'ylasin.
7. Ezma bo'lmasin.
8. O'z eriga bo'ysunsin.
9. To'g'ri, kamtar va farosatli bo'lsin.
10. U hech qachon o'z sha'niga dog' tushirmasin.
11. Eri bilan ehtiyotkor bo'lib, uning hurmatini joyiga qo'yib, xushmuomala bo'lishi shart
12. U o'z vazifasini va burchini yaxshi bilsin.
13. Xotin oila xo'jaligidagi narsalardan to'g'ri, tejab foydalanishni bilsin.
14. U o'z tabiati va yaxshi tomonlari bilan eridagi kamchiliklarni yo'qotsin»[19].

Ibn Sino ayollarga ana shunday murakkab va hayotiy vazifalarni yuklaydi. Bu o'z navbatida oilani mustahkamlashga turtki bo'ladi.

Buyuk sarkarda Amir Temur ham oila qurish masalalariga davlat yumushlaridek juda jiddiy e'tibor bergan. Sohibqiron, xususan, kelin tanlash haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: «O'g'illarim, nabiralaring va yaqinlaringni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e'tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko'rdim. Kelin bo'lmishning nasl-nasabini, etti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog'liq salomatligini, jismonan kamolotini aniqladim. Kelin bo'lmish nasl-nasabi, odob axloqi, sog'lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo'lsagina el-yurtga katta to'y-tomosha berib, kelin tushurdim»[20].

Buyuk alloma Alisher Navoiyning er-xotin munosabatlari, burchlari, ayollar fazilati, ularning oilada tutgan o'rni haqidagi qarashlari beqiyosdir. «Mahbub-ul-qulub» asarining «Uylanish va xotinlar to'g'risidagi» faslida mutafakkir uylanish va uning foydasi, oila odobi va oilada ayollarning

fazilatlari haqida ajoyib fikrlarni bayon etgan. Navoiy ayolning turmushdagi hissasiga quyidagicha to'xtaladi: «Yaxshi xotin – oilaning davlati va baxti. Uyning ozodaligi undan, uy egasining xotirjam va osoyishtaligi undan. Husnli bo'lsa – ko'ngil yozig'i, xushmuomala bo'lsa – jon ozig'idir. Oqila bo'lsa, ro'zg'orda tartib-intizom bo'ladi, asbob-anjomlar pokiza va saranjom turadi».

Yevropa olimlarining fikricha, oila asosini erkak bilan ayol o'rtasidagi nikoh birligi va nasl tashkil etadi. AQSh etnograf olimi L.Morganning oila taraqqiyoti bosqichlari to'g'risidagi fikrini keltirish mumkin. Qon-qarindoshlikka asoslangan oilada nikoh qabila va urug' a'zolari orasida bo'ladi. Nikoh er va xotinning moddiy yaqinligining qonuniy asosidir. G'arb olimlari qarashlarida oila moddiy munosabatlarning tartibga solinishi nuqtai nazaridan jinsiy, iqtisodiy aloqadorlik asosi deb qaralsa, Sharqda oila insonlarning go'zal odob va axloqining tartibga solinishi uchun zaruriy bo'g'in deb qaraladi.

Oila, nikoh - ruhoniylar, cherkov nazdida ilohiy o'rnatilgan, belgilanganligini ta'kidlab yuridik jihatga katta e'tibor berilmagan

Oilani klassik jihatdan tushunish Rim huquqi vakillari Modestin va Yustinianga tegishlidir. Modestin ta'limotiga asosan —Oila – erkak va ayolning umrbod ilohiy va huquqiy birlashuvi. [21] Yustinian esa erkak va ayolning ittifoqiga jamiyatning ajralmas qismi sifatida qaragan.

Oila tarixiy tushuncha hisoblanadi, shuning uchun turli xalqlarda ushbu atama turlicha tushuniladi. Shunday vaqtlar bo'lganki, aka-ukalar, xola, buvi, nevaralar yagona oila hisoblangan. Qadimgi Rimda esa oilaga nafaqat ota-ona, farzandlar, balki otasidan ajralib chiqib, o'z oilasiga allaqachon ega bo'lgan insonlar ham kirgan. Oila tarkibiga qullar, ozod qilinganlar va ro'zg'or narsalari kirgan. Nestor davrida - urug' atamasi yagona kuch, hokimiyat ostida birlashgan va yashovchi ota-ona farzandlar, qarindoshlar va umuman insonlar ittifoqi hisoblangan. Yuridik jihatdan qarindoshlar, ota-ona va farzandlar o'rtasida chegara bo'lmagan.[22] Fransuz ma'rifatparvari Jan-Jak Russo o'z davrida "Oila - eng qadimiy va asli tabiiy bo'lgan jamiyat bo'lagidir. Oila - kerak bo'lsa, jamiyat siyosiy qiyofasini belgilovchi obraz, bunda etakchi, rahbar – go'yoki ota misoli, xalq esa - farzandlar kabidir"[23] - deb yozgan edi. XIX asrning ikkinchi yarmida yashab o'tgan taniqli tarixchi I. Zabelin slavyanlar hayotini o'rganib, —oila har bir urug'ning dastlabki asosidir, o'zagidir degan. O'tmishda oila urug'ning bir qismi bo'lib, hozirgidek shaxsiy oilaviy doiradan iborat bo'lgan. Yuqoridagi fikrlarga D.A.Rovinskiy ham qo'shilib, har qanday jamiyatning ijtimoiy turmushning asosini oila tashkil etishini aytib o'tgan[24] .

Oila deganda kichik bir kishilik jamiyatni tushunish kerak, erkak va ayolning ittifoqi bu jamiyatning asosini tashkil etadi. Bu oila bir ayol va erkak yoki bir necha ayol va erkaklardan iborat ittifoqda tug'ilgan farzandlardan tashkil topib, ular o'rtasida o'zaro huquq va majburiyatlar bo'lishi va ushbu huquq va majburiyatlar urf-odatlar yoki qonun bilan tartibga solinishi mumkin. Ushbu oilalar bir ro'zg'or ostida yashashi yoki oilaviy guruhlar sifatida bir necha uylarda yashashi mumkin bo'lgan[25]. Lug'atlarda - oila birgalikda yashaydigan yaqin qarindoshlar guruhidir[26] - deb ta'rif berilgan. Falsafiy lug'atlarda oila ijtimoiy jamiyatning bir ko'rinishi sifatida shaxsiy turmush sharoitini yaratishning shakli ko'rinishida, qarindoshlik va er-xotinlik munosabatlariga asoslangan erkak va ayol, ota-onalar va farzandlar, aka-ukalar va boshqa qarindoshlar o'rtasidagi aloqalarga asoslangan umumiy xo'jalik yuritishdir[27], deb izohlangan. Dunyo olimlari oilani o'rganar ekan unga, uning mazmunini yoritishga turlicha yondashdilar. Shulardan biri Rossiyalik G.F. Shershenevich bo'lib , "Oila – nikoh orqali birlashgan va ittifoq tuzgan shaxslar va ulardan tug'ilgan shaxslar ya'ni er, xotin va farzandlarning birgalikdagi yashashidir",[28] degan. U oilaning tabiiy-biologik tomonlarga e'tibor berib, oilaning asosida fiziologik jihat, ya'ni jinsiy ehtiyojni qondirish yotadi. Farzandlar er-xotinning birgalikdagi fiziologik turmush kechirishlari natijasidir, oilaning fiziologik va axloqiy tuzilishi huquq doirasidan chetda yuzaga keladi, shu munosabatlarga yuridik aralashuv oila a'zolarining mulkiy munosabatlari yuzasidan bo'lishi mumkin deydi. Shunga o'xshash oila va nikohning, ayniqsa uning huquqiy asoslarini tushunish oldin ham mavjud bo'lgan. Masalan, Kormchey kitobida quyidagilar ta'kidlangan: "Qonuniy nikoh va er-xotinlik munosabatlari Iso Masih tomonidan o'rnatilgan va belgilangan, inson qavmining ortishi, uning tarbiyasi va ilohiy shuhratga erishishi yo'lidagi harakati, sevgi va do'stlik o'zaro yordam berish va eng asosiysi gunohlardan saqlanish yo'lidagi ittifoqidir"[29] - deyilgan fikr ham mavjud. Shunday qilib, nikoh nafaqat insonning nasl qoldirishi va farzand tarbiyasidan tashqari gunohlardan saqlanish uchun ham xizmat qiladi, balki ma'lum ma'noda jamiyatda barqaror axloqiy muhitni saqlashga xizmat qiladi.

A.G.Xarchev -Oilaning aholi tarkibini qayta qurish, ijtimoiylashtiruv, xo'jalik, iste'mol va bo'sh vaqtni unumli o'kazishni tashkil etish, jinsiy hayotni yo'lga qo'yish, yangi avlodni shakllantirish, hissiy qoniqlash, himoya, iqtisodiy ta'minot funksiyalari borligini qayd etadi[30]. Oilaning jamiyatdagi vazifasini boshqa biror bir institut bajara olmaydi. Agar jamiyatda oila o'z funksiyasini to'g'ri bajarsa ishlab chiqaradi, amaliyotga joriy qiladi, taraqqiyotga poydevor quradi va jamiyatda tinchlik farovonlik hukm suradi. Jamiyatda bitta bo'lsa ham buzg'unchi kayfiyatdagi, ma'naviy nosog'lom oilaning mavjud bo'lishi atrofdagilarga ham salbiy ta'sir qiladi. Jamiyatda oila tayanch vazifasini ham bajaradi.

Zamonlar o'tishi bilan mulkiy munosabatlar rivojlanib bordi, ayollar ham iqtisodiy, ijtimoiy, huquqiy va nikoh munosabatlarida faollik ko'rsatib, tenglik tamoyilini talab qila boshladilar. Jamiyatda insonlar dunyoqarashining o'sishi, o'z haq-huquqlarini talab qila boshlashi demokratik islohot tarafdorlarining ko'payishi va ular orasida ayollarning ham borligi fuqarolik jamiyati nafasining ufurishi va dunyo bo'ylab erkinlik shamolining keizishiga siyosiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Bu o'zgarishlardan maqsad ijtimoiy hayotda ayollarning huquqlarini himoya qilish, nikoh munosabatlarini tartibga solish, nikohning muqaddasligini e'tirof etgan holda oiladagi majburiyatlarni o'zaro teng ado etish, halol, pok, sog'lom oilaviy muhitni yaratish.

XULOSA

Yuqorida bildirilgan fikr va mulozalardan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarni ilgari surish mumkin, oila - bu qadim zamonlardan buyon hayot davomiyligini ta'minlab kelayotgan manba. Oilasiz kishilik jamiyatini tasavvur etib bo'lmaydi. Shu sababli Sharq va G'arb tadqiqotchilari, mutafakkir faylasuflari va ma'rifatparlari bu muammoga o'ziga xos tarzda yondashishgan. Jadidlar o'sha zamon kishilarining oila va oila tutish sifatlarini belgilashda ikki manbadan oziq oldilar: bir tomondan milliy va islomiy an'analarga, xususan, mutasavvif allomalarning komil inson haqidagi ta'limotiga tayangan, ularni zamon talablariga muvofiq tarzda rivojlantirgan bo'lsalar, ikkinchi tarafdin, Yevropa falsafasi va adabiyotida o'z talqinini topgan inson konsepsiyasidan davr va o'ziga xos milliy muhit, xalqning turmush tarzi xususiyatlarini e'tiborga olgan holda unumli foydalandilar.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Najmiddinova K., Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni.-T: "Adolat",2016, -B.7.
2. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari.Ma'naviyat.-T, 2000.-B. 7.
3. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari.Ma'naviyat.-T, 2000.-B. 43.
4. 15-moddaning birinchi qismi O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 28-avgustdagi O'RQ-558-sonli [Qonuni tahririda](#) — *Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi*, 29.08.2019-y., 03/19/558/3662-son
5. Avesto-tarixiy-adabiy yodgorlik.-T: "Sharq"NMAK,2001,-B.3-20.
6. Inson huquqlari to'g'risida xalqaro bill kitobida.Toshkent."Adolat", 1992 yil, 14-bet.
7. Falsafa qomusiy lug'at.O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti.Sharq.T., 2004 yil.B-310
8. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari.Ma'naviyat.-T, 2000.-B.14.
9. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari.-T.: Ma'naviyat. 2000.-B.37.
10. Tillaeva.G.Oila va inson kamoloti.Falsafa va huquq instituti.Toshkent.2011.-B.15
11. Ayubov T.Nikoh,qonun va axloq.Toshkent.Fan.1979.-B.10.
12. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari.-T.: Ma'naviyat. 2000.-B.11.
13. Tillaeva.G.Oila va inson kamoloti. -T.:Falsafa va huquq instituti.2011.-B.12
14. Hidoya:kommentarii musulmanskogo prava.Knigall.Glava I.O nikoh ili brake.-S.121-125.Glava II.Ob opeke i ravenstve mejdu
15. Abdurauf Fitrat. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. -T.: Ma'naviyat. 2000.-B.25.
16. Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. — T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. —224-b.
17. Beruniy. Minerologiya. — M., 1963. —S. 256.
18. Beruniy. Minerologiya. — M., 1963. —S. 256.
19. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino ta'lim va tarbiya haqida.— T.: «O'qituvchi», 1967. —B.—99.
20. Ayol-muqaddassan. — T., «Yozuvchi», 1999. —B.242.
21. Kanonicheskoe pravo o brake / De MATRIMONIO). Uchebnoe posobie / Sostavit. Svyash. I. Yurkovich. -M., Kolledj Katolicheskoy teologii im.Sv. Fomi Akvinskogo. 1994
22. Konspekt o istorii russkogo grajdanskogo i ugolovnogo prava/Sost. Po uchebniku D.Ya.Samokvasova. M., 1911.
23. Russo J.-J. Ob obsh estvennom dogovore, ili P rinsipi politicheskogo prava // Ped. soch.: V 2 t - M.: 1981. - T.2.
24. Koni A.F. Otsi i deti sudebnoy reformi (K pyatidesyatiletuyu sudebnix ustavov). 1864-1914. M., 1914.
25. Brokgauz F. A., Efron I. A. Ensiklopediseskiy slovar. T. XXIX, Spb., 1900.

26. Ojegov S.I. Slovar russkogo yazika. -M., 1989. Russo J.-J. Ob obsh estvennom dogovore, ili P rinsipi politicheskogo prava // Ped. soch.: V 2 t .- M .: 1981. - T.2.
27. Filosofskiy slovar. -M., 1986.
28. Shershenovich G.F. Uchebnik russkogo grajdanskogo pravo. T. 2, m., -M., 1915.
29. Sarutova . Russkoe semeynoe pravo XVI-XVIII v.v.. -M., 1991.
30. Xarchev A.G.Issledovanie semi na poroge novogo etapa.// Sosiolocheskie issledovaniya-1986.№3.-S.42.